kompetensiyalar alohida o'rin tutadi. Ular shaxsning muammolarni tizimli tahlil qilish, ma'lumotlarni qayta ishlash, algoritmik fikrlash asosida qarorlar qabul qilish hamda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish qobiliyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning iqtisodiy jarayonlarga tobora chuqur kirib borishi natijasida raqamli kompetensiyalar ishchi kuchi bozori subyektlarining raqobat ustunligini belgilovchi strategik omillardan biriga aylanmoqda.

Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, algoritmik fikrlash va raqamli ko'nikmalarga ega bo'lgan xodimlar mehnat unumdorligi, innovatsion faolligi va moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, mazkur kompetensiyalarni rivojlantirish ishchi kuchining zamonaviy mehnat bozori talablariga tez moslashishiga, bandlik sifatining oshishiga hamda iqtisodiy samaradorlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va ishchi kuchi bozorini modernizatsiya qilish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Mamlakatda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, IT sohasini rivojlantirish, yoshlarning raqamli ko'nikmalarini oshirish va inson kapitali sifatini yuksaltirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, iqtisodiyotning raqamlashuvi sharoitida ishchi kuchining raqamli kompetensiyalarini shakllantirish, ularning tarkibiy elementlarini aniqlash hamda ishchi kuchi bozori samaradorligiga ta'sirini baholash masalalarini yanada chuqurroq ilmiy tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ishchi kuchining raqamli kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslarini chuqur o'rganish, ularning ishchi kuchi bozori samaradorligiga ta'sir mexanizmlarini aniqlash hamda ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu jihatdan, ishchi kuchining raqamli kompetensiyalarini shakllantirish va ularning ishchi kuchi bozori samaradorligiga ta'sirini tadqiq etish zamonaviy iqtisodiyot fanining dolzarb va istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ishchi kuchining sifati va uning ishchi kuchi bozori samaradorligiga ta'siri iqtisodiyot fanining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ishchi kuchi kategoriyasining nazariy asoslari klassik iqtisodiy maktab vakillari tomonidan shakllantirilgan bo'lib, ushbu masala K. Marks tadqiqotlarida alohida o'rin egallaydi<sup>1</sup>. Muallif ishchi kuchini insonning jismoniy va aqliy qobiliyatlari yig'indisi sifatida tavsiflab, uning ishlab chiqarish jarayonidagi o'rnini asoslab bergan. Keyinchalik mehnat iqtisodiyoti sohasidagi tadqiqotlarda ishchi kuchining sifati, malakasi va kasbiy tayyorgarligi iqtisodiy samaradorlikni belgilovchi muhim omillar sifatida talqin qilina boshlandi.

Ishchi kuchining sifat tavsiflari va uning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri masalalari iqtisodiyot fanida uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinayotgan ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur masalaning nazariy asoslari inson kapitali konsepsiyasi doirasida shakllangan bo'lib, ushbu yo'nalishning asoschilari T. Schultz va G. Becker hisoblanadi. Ularning tadqiqotlarida ta'lim, malaka va kasbiy tayyorgarlikka yo'naltirilgan investitsiyalar inson kapitalining muhim tarkibiy qismi sifatida baholangan hamda mehnat unumdorligi va iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri ekanligi asoslab berilgan<sup>2</sup>. Ayniqsa, G. Becker inson kapitaliga kiritilgan investitsiyalar shaxs daromadlari va mehnat bozorida raqobatbardoshlik darajasini oshirishini ilmiy jihatdan asoslagan<sup>3</sup>.

Inson kapitali nazariyasining keyingi rivojlanishi R. Lucas va P. Romer tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Mazkur olimlar iqtisodiy o'sishning endogen nazariyasini rivojlantirib, bilimlar, innovatsiyalar va intellektual salohiyat iqtisodiy taraqqiyotning muhim manbalari ekanligini ta'kidlaganlar<sup>4</sup>. Ularning fikricha, zamonaviy iqtisodiyotda iqtisodiy samaradorlikni oshirish nafaqat moddiy resurslarga, balki ishchi kuchining bilim va kompetensiyalar darajasiga ham bevosita bog'liqdir<sup>5</sup>.

XXI asrga kelib raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida ishchi kuchi sifatini baholash mezonlari sezilarli darajada takomillashdi. Shu nuqtai nazardan, OECD, UNESCO va Yevropa Komissiyasi ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan raqamli kompetensiyalar konsepsiyasi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi<sup>6</sup>. Xususan, DigComp konsepsiyasida axborotni izlash va qayta ishlash, raqamli kommunikatsiya, muammolarni hal etish hamda texnologik vositalardan samarali foydalanish zamonaviy ishchi kuchi bozori uchun zarur kompetensiyalar sifatida e'tirof etilgan.

1 Marks K. Kapital. I jild. – Moskva: Politizdat, 1983.

2 Schultz T.W. Investment in Human Capital // The American Economic Review. – 1961. – Vol. 51. – No. 1. – P. 1–17.

3 Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. – Chicago: University of Chicago Press, 1993.

4 Lucas R.E. On the Mechanics of Economic Development // Journal of Monetary Economics. – 1988. – Vol. 22. – No. 1. – P. 3–42.

5 Romer P.M. Endogenous Technological Change // Journal of Political Economy. – 1990. – Vol. 98. – No. 5. – P. S71–S102.

6 European Commission. DigComp 2.2: The Digital Competence Framework for Citizens. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2022.



Raqamli kompetensiyalar masalasining ilmiy-nazariy asoslari J. Wing tomonidan ilgari surilgan "Computational Thinking" konsepsiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Muallif algoritmik fikrlashni murakkab muammolarni tahlil qilish, ularni mantiqiy tarkibiy qismlarga ajratish va samarali yechim algoritmlarini ishlab chiqish qobiliyati sifatida tavsiflaydi<sup>7</sup>. J. Wingning mazkur yondashuvi keyinchalik M. Grover va R. Pea tomonidan rivojlantirilib, algoritmik fikrlash nafaqat dasturlash sohasi, balki iqtisodiyot, boshqaruv va biznes jarayonlari uchun ham muhim kompetensiya ekanligi asoslab berilgan<sup>8</sup>.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarning aksariyati algoritmik fikrlash va raqamli kompetensiyalarni asosan pedagogik yoki texnologik nuqtai nazardan o'rganishga qaratilgan. Shu bilan birga, ularning ishchi kuchi sifati, mehnat unumdorligi va ishchi kuchi bozori samaradorligiga ta'sirini iqtisodiy kategoriya sifatida chuqur tadqiq etish ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ishchi kuchining raqamli kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy asoslari hamda ularning ishchi kuchi bozori samaradorligiga ta'sir mexanizmlarini O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida o'rganish dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur holat ushbu yo'nalishda qo'shimcha ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini belgilaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasining asosini klassik siyosiy iqtisod maktabi, neoklassik iqtisodiy maktab, institutsional iqtisodiyot, kompetensiyaviy yondashuv hamda raqamli iqtisodiyot nazariyalari oid ilmiy qarashlar tashkil etadi. Ishchi kuchining iqtisodiy mohiyatini yoritishda klassik siyosiy iqtisod maktabi vakillarining mehnat va ishchi kuchiga oid nazariy qarashlaridan foydalanildi. Xususan, K. Marksning ishchi kuchini insonning jismoniy va aqliy qobiliyatlari majmui sifatida talqin etuvchi nazariyasi tadqiqotning muhim nazariy asoslaridan biri bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, neoklassik iqtisodiy maktab vakili A. Marshallning mehnat unumdorligi, malaka va kasbiy tayyorgarlikning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri haqidagi ilmiy qarashlari ishchi kuchi sifatini baholashda metodologik asos sifatida qo'llanildi.

Tadqiqotning kompetensiyaviy yondashuvi D. McClelland tomonidan ilgari surilgan kompetensiyalar nazariyasiga asoslanadi. Mazkur nazariyaga ko'ra, xodimning samaradorligi nafaqat uning bilim darajasi, balki amaliy ko'nikmalari, muammolarni hal qilish qobiliyati va kasbiy xulq-atvori bilan ham belgilanadi. Ushbu yondashuv R. Boyatzis hamda L. Spencer va S. Spencerlarning ilmiy ishlari orqali yanada rivojlantirilgan bo'lib, tadqiqotda raqamli kompetensiyalarni ishchi kuchining zamonaviy sifat tavsifi sifatida baholashda nazariy asos vazifasini bajardi.

Raqamli kompetensiyalarning mazmun-mohiyatini ochib berishda konstruktivistik ta'lim nazariyasi hamda hisoblash tafakkuri, ya'ni "Computational Thinking" konsepsiyasidan foydalanildi. Ushbu yondashuvning asoschilari S. Papert va J. Wing hisoblanadi. J. Wing algoritmik fikrlashni murakkab muammolarni tahlil qilish, ularni tarkibiy qismlarga ajratish va samarali yechim algoritmlarini ishlab chiqish qobiliyati sifatida tavsiflaydi. Mazkur yondashuv keyinchalik M. Grover va R. Pea tomonidan rivojlantirilib, algoritmik fikrlashning zamonaviy kasbiy faoliyatdagi o'rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Tadqiqotning ishchi kuchi bozori bilan bog'liq qisim institutsional iqtisodiyot va raqamli iqtisodiyot nazariyalari doirasida o'rganildi. Institutsional yondashuv asosida ishchi kuchi bozori iqtisodiy institutlar, ta'lim tizimi va texnologik rivojlanish bilan o'zaro bog'liq tizim sifatida talqin qilindi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishchi kuchining transformatsiyasini baholashda D. Autor, E. Brynjolfsson va A. McAfee tomonidan ishlab chiqilgan texnologik o'zgarishlar hamda ishchi kuchi bozori transformatsiyasiga oid ilmiy qarashlardan foydalanildi. Ularning tadqiqotlarida sun'iy intellekt, avtomatlashtirish va raqamli texnologiyalar ta'sirida ishchi kuchiga bo'lgan talab tarkibining o'zgarishi hamda yangi kompetensiyalarning shakllanishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya, mantiqiy umumlashtirish hamda kontent-tahlil usullaridan foydalanildi. OECD, UNESCO, International Labour Organization (ILO), World Economic Forum va boshqa xalqaro tashkilotlarning hisobotlari hamda zamonaviy ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, olingan natijalar umumlashtirildi. Mazkur metodologik yondashuvlar asosida ishchi kuchining raqamli kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy asoslari tizimlashtirildi hamda ularning ishchi kuchi bozori samaradorligiga ta'sir etishining konseptual modeli ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi ishchi kuchi bozorida ishchi kuchiga qo'yiladigan talablarning sifat jihatdan yangilanishiga olib kelmoqda. Xususan, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, bulutli texnologiyalar va raqamli platformalarning keng qo'llanilishi natijasida an'anaviy kasbiy ko'nikmalar bilan bir qatorda raqamli

7 Wing J.M. Computational Thinking // Communications of the ACM. – 2006. – Vol. 49. – No. 3. – P. 33–35.

8 Grover S., Pea R. Computational Thinking in K–12: A Review of the State of the Field // Educational Researcher. 2013. Vol. 42. No. 1. P. 38–43.



kompetensiyalarga bo'lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda. Shu sababli raqamli kompetensiyalarni shakllantirish ishchi kuchi bozori samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli kompetensiyalar ishchi kuchining mehnat unumdorligi, moslashuvchanligi va raqobatbardoshligiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur kompetensiyalar rivojlangani sari xodimlarning murakkab muammolarni hal qilish qobiliyati, ma'lumotlar bilan ishlash samaradorligi hamda innovatsion faoliyatdagi ishtiroki ortib boradi (1-rasm).

Aloqa	VoIP yoki messenjerlar orqali qo'ng'iroqlar qilish	65,10%
	Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish	44,30%
	Biriktirilgan fayllar bilan elektron pochta xabarlarini yubora oladigan odamlar	24,10%
Raqamli kontent yaratilishi	Hujjatdagi nusxa ko'chirish va joylashtirish vositalaridan foydalanish	43,90%
	Elektron jadvalda asosiy arifmetik formulalardan foydalanish	15,90%
	Dastur yordamida prezentatsiyalar yaratish	5,80%
	Dasturlash tillaridan foydalangan holda kompyuter dasturlarini yaratish	1,40%
AKT ko'nikmalariga ega odamlar	Tibbiy ma'lumotni qidirish	13,2%
	Gazeta, jurnal yoki kitoblarni o'qish yoki yuklab olish	19,2%
	Mahsulollar yoki xizmatlar haqida ma'lumot olish	10,2%
Xavfsizlik	Qurilmalar va hisoblarni himoya qilish uchun samarali xavfsizlik choralarini o'rnatish	6,70%
	Qurilmalar, shaxsiy hisob yoki ilovadagi maxfiylik sozlamalarini o'zgartirish	1,40%
Muammolarning hal qilinishi	Yangi qurilmalarni ulash va o'rnatish	14,70%
	Online banking	10,90%
	Kompyuteringiz va boshga qurilmalar o'rtasida fayllarni uzatish	7,80%
	Dasturiy ta'minotni qidirish, yuklab olish va sozlash	7,20%
	Tovarlar va xizmatlarni sotib olish yoki yetkazib berish	1,90%
	Onlayn kurslarda qatnashish	1,40%

1-rasm. O'zbekiston aholisining asosiy raqamli ko'nikmalari<sup>9</sup>

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston aholisi orasida raqamli savodxonlik ko'rsatkichlarini yanada oshirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Fuqarolarning zamonaviy texnologiyalardan professional darajada foydalanish salohiyatini rivojlantirish, ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlil qilingan toifalar orasida raqamli xavfsizlik yo'nalishi alohida e'tibor talab etadi. Bu esa aholining internet tarmog'ida shaxsiy ma'lumotlarini to'g'ri va xavfsiz himoya qilish ko'nikmalarini yanada mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, davlat va xususiy sektor aholining raqamli ko'nikmalarini rivojlantirishda faol ishtirok etmoqda. Xususan, 2024-yilda Uzum ekotizimi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (BMTTD/UNDP) bilan hamkorlik memorandumini imzolagan dastlabki milliy IT kompaniyalardan biri bo'ldi. Ushbu strategik hamkorlik doirasida Uzum va BMTTD mutaxassislari respublika bo'ylab aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun moliyaviy savodxonlik va tadbirkorlik asoslari bo'yicha maxsus o'quv dasturlarini amalga oshirmoqda.

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi aholisining raqamli savodxonlik darajasini tahlil qilish agentligi.



Bugungi kunda O'zbekistonda raqamli moliyaviy xizmatlar va elektron tijorat jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Shu jarayonda bank-moliya xizmatlarining integratsiyasini kuchaytirish hamda raqamli savodxonlik darajasini oshirish, ayniqsa, chekka hududlar va kichik aholi punktlari uchun muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda raqamli platformalarning kengayishi va internet qamrovining yuqori darajaga yetishi xotin-qizlar hamda yoshlar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, shuningdek, yangi zamonaviy ish o'rinlarini yaratish uchun keng imkoniyatlar ochmoqda (1-jadval).

1-jadval

O'zbekistonda internetdan foydalanuvchi aholi ulushi dinamikasi<sup>10</sup>

Yil	Internetdan foydalanuvchi aholi ulushi (%)	O'sish ko'rsatkichi (o'tgan yilga nisbatan)
2021-yil	76,6 %	—
2022-yil	83,9 %	+7,3 %
2023-yil	89,0 %	+5,1 %
2024-yil	93,3 %	+4,3 %
2025-yil (yanvar–avgust)	94,2 %	+0,9 %

Jadvaldagi ko'rsatkichlarni minimal deb baholab bo'lmaydi. Aksincha, aholining 94,2 foizi internetdan foydalanayotgani ishchi kuchi bozori samaradorligiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadigan yuqori darajadagi raqamli qamrov hisoblanadi. Ishchi kuchi bozori nuqtai nazaridan qaralganda, internet qamrovining kengayishi ish beruvchilar va ish izlovchilar o'rtasidagi axborot almashinuvini tezlashtiradi. Natijada bo'sh ish o'rinlari haqidagi ma'lumotlar kengroq auditoriyaga yetib boradi, ish qidirish xarajatlari kamayadi va ishchi kuchi bozoridagi axborot assimetriyasi qisqaradi. Bu esa ishchi kuchi va ish o'rinlari o'rtasidagi moslik darajasini oshirib, mehnat resurslaridan samaraliroq foydalanishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, internetdan foydalanish darajasining ortishi masofaviy ish, frilans faoliyati, platforma bandligi va elektron tadbirkorlik kabi yangi bandlik shakllarining rivojlanishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, yoshlar, ayollar va chekka hududlarda yashovchi aholi uchun ishchi kuchi bozoriga kirish imkoniyatlari kengayadi. Natijada iqtisodiy faollik va bandlik darajasi oshadi. Shu bilan birga, internet qamrovining kengayishi mehnat unumdorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xodimlar onlayn ta'lim platformalari orqali malakasini oshirish, yangi ko'nikmalarni egallash va ishchi kuchi bozoridagi o'zgarishlarga tezroq moslashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa inson kapitalining sifatini yaxshilash orqali ishchi kuchi bozori samaradorligini oshiradi.

Demak, internetdan foydalanuvchilar ulushining 94,2 foizga yetishi O'zbekistonda ishchi kuchi bozori samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biri bo'lib, ish qidirish va ishga joylashish jarayonlarini soddalashtiradi, yangi bandlik shakllarini rivojlantiradi hamda mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladi. Ilmiy ish uchun xulosa tarzida aytganda, internet qamrovining kengayishi ishchi kuchi bozoridagi tranzaksiya xarajatlari kamaytirish va mehnat resurslari taqsimotini optimallashtirish orqali ishchi kuchi bozori samaradorligini oshiradi.

Shu bilan birga, internetdan foydalanuvchilarning barchasi undan bir xil darajada samarali foydalanadimi, degan masala ham alohida e'tibor talab etadi. Chunki internetdan foydalanuvchi aholining muayyan qismi undan asosan hordiq chiqarish va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida foydalanishi mumkin. Aholining boshqa qismi esa internetdan mehnat faoliyatida axborot almashish, ish jarayonlarini tezlashtirish va kasbiy aloqalarni rivojlantirish maqsadida foydalanadi. Biroq ish qidirish, ish topish, malaka oshirish yoki ta'lim olish maqsadida internetdan samarali foydalanadiganlar ulushini yanada oshirish muhim ahamiyatga ega. Shu bois internet qamrovining kengayishi bilan bir qatorda aholining raqamli savodxonligi va internetdan maqsadli foydalanish madaniyatini rivojlantirish ishchi kuchi bozori samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy jarayonlarga keng joriy etilishi ishchi kuchining sifat tavsiflariga nisbatan yangi talablarni shakllantirmoqda. Bunday sharoitda raqamli kompetensiyalar zamonaviy ishchi kuchining muhim tarkibiy elementi sifatida namoyon bo'lib, uning raqobatbardoshligi, moslashuvchanligi va mehnat unumdorligini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanmoqda.

10 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuv ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



Tadqiqot davomida raqamli kompetensiyalarning nazariy asoslari tahlil qilinib, ularning algoritmik fikrlash, ma'lumotlarni tahlil qilish, muammolarni tizimli hal etish, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish kabi tarkibiy elementlardan iborat ekanligi aniqlandi. Ushbu kompetensiyalar ishchi kuchining kasbiy salohiyatini oshirish bilan bir qatorda, uning texnologik o'zgarishlarga moslashuvchanligini ham ta'minlaydi.

Olib borilgan tahlillar raqamli kompetensiyalar bilan ishchi kuchi bozori samaradorligi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, raqamli kompetensiyalarning rivojlanishi mehnat unumdorligining ortishiga, ishchi kuchi raqobatbardoshligining kuchayishiga, yuqori malakali bandlik ulushining oshishiga va ish haqi darajasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, mazkur kompetensiyalar ishchi kuchining kasbiy mobilligini kuchaytirib, ishchi kuchi bozorida talab va taklif o'rtasidagi nomutanosibliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ishchi kuchi bozori samaradorligi faqat ishchi kuchining mavjudligi bilan emas, balki uning zamonaviy kompetensiyalarga egalik darajasi bilan ham belgilanadi. Raqamli kompetensiyalarga ega bo'lgan ishchi kuchi mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshiradi, ish o'rinlarining sifatini yaxshilaydi hamda iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi. Natijada iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarish samaradorligi ortadi va inson kapitalining iqtisodiy qaytimi yuqorilaydi.

Shuningdek, tadqiqot davomida O'zbekistonda raqamli savodxonlik va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ishchi kuchi bozorining transformatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani aniqlandi. Shu bilan birga, aholi, ayniqsa, yoshlar va ishchi kuchi bozoriga kirib kelayotgan mutaxassislar orasida algoritmik fikrlash, ma'lumotlarni tahlil qilish va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini yanada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Marks K. Kapital. I jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1983. – 794 b.
2. Marshall A. Principles of Economics. – London: Macmillan and Co., 1890. – 754 p.
3. Schultz T.W. Investment in Human Capital // The American Economic Review. – 1961. – Vol. 51. – No. 1. – P. 1–17.
4. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. – Chicago: University of Chicago Press, 1993.
5. Lucas R.E. On the Mechanics of Economic Development // Journal of Monetary Economics. – 1988. – Vol. 22. – No. 1. – P. 3–42.
6. Romer P.M. Endogenous Technological Change // Journal of Political Economy. – 1990. – Vol. 98. – No. 5. – P. S71–S102.
7. McClelland D.C. Testing for Competence Rather Than for Intelligence // American Psychologist. – 1973. – Vol. 28. – No. 1. – P. 1–14.
8. Boyatzis R.E. The Competent Manager: A Model for Effective Performance. – New York: John Wiley & Sons, 1982. – 308 p.
9. Spencer L.M., Spencer S.M. Competence at Work: Models for Superior Performance. – New York: John Wiley & Sons, 1993. – 384 p.
10. Papert S. Mindstorms: Children, Computers and Powerful Ideas. – New York: Basic Books, 1980. – 252 p.
11. Wing J.M. Computational Thinking // Communications of the ACM. – 2006. – Vol. 49. – No. 3. – P. 33–35.
12. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. – Geneva: World Economic Forum, 2016. – 192 p.
13. UNESCO. Digital Literacy Global Framework. – Paris: UNESCO Institute for Statistics, 2018. – 146 p.
14. European Commission. DigComp 2.2: The Digital Competence Framework for Citizens. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2022. – 134 p.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. – Toshkent, 2022. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
16. USAID, Internews, "Jamoatchilik fikri" tadqiqot instituti. O'zbekistonda media va axborot savodxonligi bo'yicha tadqiqot natijalari. – Toshkent, 2023.
17. International Telecommunication Union (ITU). Measuring Digital Development: Facts and Figures 2024. – Geneva: ITU, 2024.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 6/4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>